

INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMADA LINGVOMADANIY
BIRLIKLARNING BERILISHI

Berdiyeva Gulshirin Mirzayevna

Termiz davlat universiteti Akademik litseyi o'qituvchisi

berdiyevagulshirin@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.20384395>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima jarayonida lingvomadaniy birliklarning ifodalanish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Lingvomadaniy birliklarning mohiyati, ularning tarjima jarayonidagi o'rni hamda milliy-madaniy xususiyatlarni saqlab qolish muammolari o'rganiladi. Shuningdek, realiyalar, frazeologik birliklar, maqol va matallar, milliy urf-odatlariga oid birliklarni tarjima qilish usullari misollar asosida yoritiladi. Tarjimada lingvomadaniy kompetensiyaning ahamiyati va tarjima sifatini ta'minlashdagi roli ilmiy asosda bayon etiladi.

Kalit so'zlar: lingvomadaniyat, tarjimashunoslik, lingvomadaniy birlik, realiya, frazeologizm, ekvivalentlik, pragmatik ma'no, milliy-madaniy komponent, tarjima strategiyasi.

Abstract. This article scientifically and theoretically analyzes the issues of expressing linguocultural units in the process of translation from English into Uzbek. The essence of linguocultural units, their role in the translation process, and the challenges of preserving national and cultural characteristics are examined. In addition, methods of translating realia, phraseological units, proverbs and sayings, as well as units related to national customs and traditions are explained through examples. The importance of linguocultural competence in translation and its role in ensuring translation quality are also scientifically discussed.

Keywords: linguoculture, translation studies, linguocultural unit, realia, phraseological unit, equivalence, pragmatic meaning, national-cultural component, translation strategy.

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются вопросы передачи лингвокультурных единиц в процессе перевода с английского языка на узбекский язык. Рассматриваются сущность лингвокультурных единиц, их роль в процессе перевода, а также проблемы сохранения национально-культурных особенностей. Кроме того, на основе примеров освещаются способы перевода реалий, фразеологических единиц, пословиц и поговорок, а также единиц, связанных с национальными традициями и обычаями. Научно обосновывается значение лингвокультурной компетенции в переводе и её роль в обеспечении качества перевода.

Ключевые слова: лингвокультурология, переводоведение, лингвокультурная единица, реалья, фразеологизм, эквивалентность, прагматическое значение, национально-культурный компонент, стратегия перевода.

Kirish. Hozirgi globallashuv davrida turli xalqlar va madaniyatlar o'rtasidagi aloqalarning rivojlanishi tarjimashunoslik sohasining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Tarjima faqat bir tildagi axborotni boshqa tilga ko'chirish vositasi emas, balki turli madaniyatlar o'rtasida muloqotni ta'minlovchi muhim kommunikativ hodisa hisoblanadi. Shu sababli zamonaviy tarjimashunoslikda lingvistik omillar bilan bir qatorda madaniy komponentlarni ham hisobga olish zarurati ortib bormoqda.

Til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik lingvomadaniyatshunoslik fanining shakllanishiga asos bo'ldi. Lingvomadaniyatshunoslik til birliklari orqali xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari, urf-odatlar va milliy tafakkurini o'rganadi. Tarjima jarayonida aynan mana shu lingvomadaniy xususiyatlarni to'g'ri ifodalash murakkab masalalardan biri sanaladi.

Ingliz va o'zbek tillari turli til oilalariga mansub bo'lib, ularning madaniy asoslari ham sezilarli darajada farqlanadi. Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida ayrim madaniy tushunchalar, realiyalar yoki frazeologik birliklar tarjimon oldida muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Natijada tarjimon lingvistik bilim bilan bir qatorda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyaga ham ega bo'lishi talab etiladi.

Lingvomadaniy birliklarning nazariy asoslari – muayyan xalqning madaniyati, tarixiy tajribasi, ijtimoiy hayoti va milliy mentalitetini aks ettiruvchi til birliklaridir. Ular til orqali madaniyatni ifodalash vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

E.M. Vereshchagin va V.G. Kostomarovlarning ilmiy qarashlariga ko'ra, til faqat kommunikativ vosita emas, balki milliy madaniyatni saqlovchi va avloddan avlodga yetkazuvchi tizim hamdir. Til tarkibidagi madaniy birliklar xalqning tarixiy taraqqiyoti va dunyoqarashi bilan chambarchas bog'langan bo'ladi.

Lingvomadaniy birliklarga quyidagilar kiradi: *realiyalar, milliy urf-odatlarini ifodalovchi birliklar, milliy taomlar nomlari, maqol va matallar, frazeologik birliklar, diniy va tarixiy tushunchalar, milliy bayram nomlari va madaniy konnotatsiyaga ega leksik birliklar*. Masalan, ingliz tilidagi "

"pub" tushunchasi ingliz madaniyatida muhim ijtimoiy muhitni ifodalasa, o'zbek tilida unga to'liq mos keladigan ekvivalent mavjud emas. Shu sababli tarjima jarayonida madaniy mazmuni ham hisobga olish talab qilinadi.

Lingvomadaniy birliklar tarjimasida asosiy vazifa matnning semantik mazmunini saqlab qolish bilan birga, madaniy komponentlarni ham imkon qadar to'liq yetkazishdan iboratdir.

Tarjimada lingvomadaniy birliklarni ifodalash usullari – tarjimashunoslik nazariyasida lingvomadaniy birliklarni tarjima qilishning bir necha usullari mavjud.

Transliteratsiya va transkripsiya – bu usulda birlikning fonetik yoki grafik shakli saqlanadi. Misollar: *Halloween* → *Xellouin*, *Thanksgiving* → *Thanksgiving bayrami*, *Pub* → *pab*. Mazkur usul madaniy koloritni saqlash imkonini beradi. Biroq o'quvchi uchun tushunarsiz bo'lish ehtimoli mavjudligi sababli ayrim hollarda qo'shimcha izoh talab etiladi.

Izohli tarjima usuli – madaniy jihatdan muhim birliklar ba'zan izohlash orqali tarjima qilinadi. Masalan: *"Black Friday"* → *"yirik chegirmalar kuni"*, *"Boxing Day"* → *"Rojdestvodan keyingi bayram kuni"* va boshqalar. Bunday usul o'quvchining matn mazmunini to'liq tushunishiga yordam beradi.

Ekvivalent birlik yordamida tarjima qilish – agar tarjima tilida mazmuniy jihatdan yaqin birlik mavjud bo'lsa, undan foydalaniladi. Masalan: *"Practice makes perfect"* → *"Mashq orqali mahorat hosil bo'ladi."*, *"Don't count your chickens before they hatch"* → *"Jo'jani kuzda sanaydilar."* Bu yerda so'zma-so'z tarjima emas, balki pragmatik va mazmuniy moslik asos qilib olinadi.

Adaptatsiya usuli – ba’zi hollarda madaniy birlik tarjima tili madaniyatiga moslashtiriladi. Masalan, ingliz tilidagi muayyan taom yoki madaniy hodisalar o‘zbek kitobxoniga tushunadigan shaklda ifodalanishi mumkin. Bu usul ayniqsa badiiy tarjimada keng qo‘llanadi.

Frazeologik birliklarni tarjima qilish muammolari – frazeologik birliklar lingvomadaniy qatlamning eng murakkab tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ular xalq tafakkuri, hayotiy tajribasi va madaniy qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Masalan: "*Break the ice*" frazeologik birligini so‘zma so‘z tarjima qilsak "*muzni sindirmoq*" deb tarjima qilinadi. Ammo mazmuniy tarjima qilsak, "*muloqotni boshlamoq*" yoki "*rasmiy muhitni yumshatmoq*" deb tarjima qilinadi. Yana bir misol keltirsak "*Spill the beans*" iborasini ham so‘zma-so‘z tarjima qilinsa, "*loviya to‘kmoq*" degan manoni anglatasa, aslida esa, mazmun jihatidan tarjima qilinsa "*sirni oshkor qilmoq*" degan tarjimani bildiradi. Bu misollar frazeologik birliklarni tarjima qilishda semantik va pragmatik omillarning muhimligini ko‘rsatadi.

Realialar tarjimasining lingvomadaniy xususiyatlari – realialar muayyan xalq madaniyatiga xos bo‘lgan predmet, hodisa yoki tushunchalarni ifodalaydi. Masalan, "*Big Ben*" – oddiy soat emas, balki Buyuk Britaniya tarixiy-madaniy ramzi hisoblanadi. "*The White House*" – AQSh prezidenti qarorgohi bo‘lish bilan birga siyosiy hokimiyat ramzi sifatida ham qo‘llanadi. Tarjima jarayonida realialarning nafaqat lug‘aviy, balki madaniy ma‘nosi ham saqlanishi zarur. Shuningdek, milliy taomlar nomlari tarjimasida ham lingvomadaniy omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, "*Fish and chips*" – ingliz milliy taomi. Uni oddiy "*baliq va kartoshka*" tarzida tarjima qilish milliy xususiyatni to‘liq ifodalamaydi.

Tarjimonning lingvomadaniy kompetensiyasi – tarjima sifati tarjimonning lingvomadaniy kompetensiyasiga bevosita bog‘liq. Lingvomadaniy kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi, til kompetensiyasi, madaniy bilimlar, pragmatik kompetensiya, yadaniyatlararo kommunikatsiya ko‘nikmalari va kontekstual tahlil qobiliyati.

Tarjimon ikki xalqning mentaliteti va madaniy xususiyatlarini chuqur bilgan taqdiridagina adekvat tarjimani ta‘minlay oladi. Zamonaviy tarjimashunoslikda tarjimon "*madaniyat vositachisi*" sifatida talqin qilinmoqda. Chunki u faqat so‘zlarni emas, balki butun madaniy tizimni bir tildan ikkinchi tilga ko‘chiradi.

Xulosa. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjimada lingvomadaniy birliklarni adekvat ifodalash tarjimashunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tarjima jarayonida til birliklari bilan bir qatorda madaniy komponentlarni ham saqlash zarur.

Lingvomadaniy birliklarni tarjima qilishda transliteratsiya, izohli tarjima, adaptatsiya va ekvivalent birliklardan foydalanish samarali natija beradi. Biroq tarjima strategiyasini tanlash matn turi, kommunikativ maqsad va madaniy kontekst bilan chambarchas bog‘liq.

Tarjimonning lingvomadaniy kompetensiyasi sifatli tarjimaning muhim omili bo‘lib, u tarjima matnida milliy-madaniy xususiyatlarni imkon qadar to‘liq aks ettirish imkonini yaratadi.

Kelgusida ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida lingvomadaniy birliklarning korpus tahlilini amalga oshirish tarjimashunoslik rivoji uchun muhim ilmiy natijalar berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Komissarov V.N. *Teoriya perevoda. Lingvisticheskiye aspekti perevoda*. Moskva, 1990.
2. Vereshchagin E.M., Kostomarov V.G. *Yazik i kultura*. Moskva, 2005.

3. Nida E. *Language and Culture: Contexts in Translating*. Shanghai Foreign Language Education Press, 2001.
4. Newmark P. *A Textbook of Translation*. London: Prentice Hall, 1988.
5. Rahimov G'. *Tarjimashunoslik asoslari*. Toshkent, 2016.
6. Vinogradov V.S. *Vvedeniye v perevodovedeniye*. Moskva, 2001.